



MULTIMEDIA VOSITALARI VA ULARDAN TA'LIM TIZIMIDA FOYDALANISH

Alimov Mirkamol Mengliboyevich –

Termiz davlat Pedagogika instituti katta o'qituvchisi.

e-mail: mirkamol197727@gmail.com

Alimov Yo'lchi Abdimo'minovich–

Termiz davlat Pedagogika instituti Matematika va informatika yo'nalishi

4- bosqich talabasi

Shobiddinova Dilnavoz Toshtemirovna –

Termiz davlat Pedagogika instituti Matematika va informatika yo'nalishi

4- bosqich talabasi

Anotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim tizimida multimedia vositalari va ulardan foydalanish haqida so'z boradi. Pedagogik vositalardan iSpring Suite dasturi haqida alohida e'tibor qaratilsa tizimda yutuqlarga erishilishi yuzasidan to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *multemediya, mediatexnologiya, iSpring Suite, interaktiv texnologiyalar, virtual borliq, iSpring Suite, videokonferensiya.*

Asosiy qism. Multimediya vositalari (multimedia – ko'p vositalilik) - bu insonga o'zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimedia - ta'lim tizimidagi gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi: -axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy maxsulotda integratsiyalaydi;



-bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, smart televizor, smart qurilmalar, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;

-muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi.

Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni o'zlash shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ (tezkor) va video-xotira katta sig'imli tashqi xotira hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va o'quvchilarga ta'lim berish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Bizning fikrimizcha, multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va 3D animatsiya (ob'ektlarining fazodagi xarakati) effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan xoldagi ko'rinishidir. Avvalombor, o'quv jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligining kaliti xisoblanadi.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan o'quvchilarga ta'lim berish va qayta tayyorlash jarayonida keng foydalanish, kelajakda yetuk va yuqori malakali mutaxassislarni kamol toptiradi.

Mamlakatimizdagi barcha o'quv yurtlarini masofaviy ta'lim uslubi asosida birlashtirilganligi, o'qitish jarayonini yanada yuqori pog'onaga olib chiqadi.

Masofaviy ta'lim uslubi asosida o'qitish quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

Интерактив texnologiyalar:

- audiokonferensiyalar ;



- videokonferensiyalar ;
- ish stolidagi videokonferensiyalar ;
- elektron konferensiyalar ;
- ovoz kommunikatsiyalari ;
- ikki tomonlama sputnik aloqa ;
- virtual borliq ;


Masalan, multimediali texnologiyalarining, konferensiya vositalarining va multimedia kompyuterlarining mavjudligi Internet tarmog'i orqali videokonferensiyalarni yo'lga qo'yishga imkoniyat berdi. Shunday qilib, bunday ulkan axborotlashgan tarmoq o'quvchilarning masovafiy ta'lim asosida bilim olishlari uchun vaqti yoki joylashuviga qaramasdan keng sharoit yaratib beradi.

Interfaol doskalar, proyektorlar, smart televizorlar, mobil aloqa vositalari haqidagi ma'lumotlar ular tomonidan kitob ma'lumotlariga qaraganda ancha yaxshi qabul qilinishi sir emas. Sifatli yangi darajada pedagogik muloqot masalasi hal qilinadi [4]. Bugungi multimediyali tizimlarni ko'rish uchun foydalanilayotgan kompyuterning hisoblash quvvatini oshirishigina yetarli emas, buning uchun qo'shimcha apparatli qo'llab-quvvatlash analogli audio va videosignallarni raqamli ekvivalentga qo'shish va uning teskarisi uchun zarur bo'lgan analogli-raqamli va raqamli-analogli o'zgartirgich videoprotsessorlar, dekodeklar maxsus integral chizmalar va boshqalar ham zarur.

Ushbu maqolada multimediali elektron testlarni yaratish uchun iSpring Suite dasturidan foydalanamiz. Bunda qo'llanadigan texnologiyalar dasturida quyidagi ketma-ketlikni amalga oshiramiz:



1-qadam Ispring dasturiga kiramiz quyidagi 1-rasm paydo bo'ladi. iSpring Suite




2-rasm Ispring dasturini ustiga bosib kirilganda quyidagi oyna ochiladi.

2-qadam Test bo'limiga kirib "Новый тест" bo'limiga tashrif buyuramiz



3-rasm "Новый тест" bo'limiga kirsak quyidagi oyna ochiladi.


3-qadam "Новый тест" bo'limiga kirsak 4-rasm ochiladi bunda yuqori qismiga "sarlavha" pastki qismiga "Testni boshlash uchun bosing deb yoziladi".



4-rasm Sarlavha qismi



4-qadam Одиночный выбор tanlanadi undan va test kiritiladi.




6-rasm Test kiritish bo'limi

5-qadam yuqori qismiga testning savolini yozamiz pastki qismiga testning variantlarini birin ketin yozamiz.

Test yaratib bo'lgandan keyin “Публикация” bo'limiga kirsak quyidagi holat paydo bo'ladi. Bunda «WEB», «iSpring cloud», «iSpring Online», «CDO», «Word», bo'limlari ochiladi. Bunda biz o'zimizga kerak bo'lgan bo'limni tanlaymiz. Testga hattoki rasmlar, video va audio lavxalar qo'shish bilan testning mazmunini boyitish mumkin.

Testni boshlagdan so'ng yaratgan testlarni ketma-ketligi ko'rishimiz mumkin. To'g'ri javob belgilaganizdan keyin sizga to'g'ri yoki xato degan javoblarni ko'rsatadi. Keyingi testga belgilamasdan o'tib bo'lmaydi. Orqa fonga o'zingiz istagan fon tanlashingiz mumkin. Har bir savolga interaktiv yondashishingiz mumkin bu bilan o'quvchi ongiga sezilarli darajada ta'sir etgan bo'lasiz. Bundan ko'rinib turibdiki siz o'ylagan natijaga erishasiz.



7-rasm. Interaktiv test yaratish jarayoni

Elektron test tizimlari ta'lim tizimida o'quvchilarning natijalarini avtomatik tarzda qayd etib, ularni tahlil qilish uchun qulay vositalar taqdim etadi. O'qituvchilar testlarni o'tkazganidan so'ng natijalar yuzasidan tezkor tahlil olib, qaysi mavzularni yaxshilash kerakligini aniqlashlari mumkin. Testlarning savollarini qiyinlik darajasiga qarab taqsimlash zarur. Yengil savollardan boshlab, keyin o'rta daraja va keyin murakkab savollarni kiritish tavsiya etiladi. Bu o'quvchilarga o'z bilim darajasini yanada oshirish imkonini beradi. Ko'rib turganimizdek bu test dasturi ochiladi testni yakunlasak bizga natija ko'rsatadi.

Xulosa. Mutimediali taqdimot – bugungi kunda ta'lim tizimida axborot taqdim etishning yagona va eng zamonaviy shakli hisoblanadi. Bu matnli ma'lumotlar, rasmlar, slayd-shou, diktir jo'rligidagi ovoz bilan boyitilgan, videoparcha va animatsiya, uch o'lchamli grafika tarzidagi dasturiy ta'minot bo'lishi mumkin. Taqdimotning ma'lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan asosiy farqi ularning mazmunan boyitilganligi va interfaoligidir, ya'ni belgilangan shaklda o'zgarishga moyilligi va foydalanuvchi faoliyatiga munosabatini bildirishidir. Ta'lim tizimida iSpring Suite orqali bir necha imkoniyatga ega bo'lgan interfaol testlar, video kontentlar, ekranni yozib olish, elektron darsliklar yaratish mumkin ekanligi haqida to'xtalib o'tildi.

Ma'lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan farqli ravishda multimediali



taqdimot bir necha o'n minglab sahifa matn, minglab rasm va tasvirlar, bir necha soatga cho'ziladigan audio va video yozuvlar, animatsiya va uch o'lchamli grafikalarini o'z ichiga olgan bo'lishiga qaramay, ko'paytirish xarajatlarining kamligini va saqlash muddatining o'zoqligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «Informatika va Hisoblash texnikasi asoslari» A.A.Abduqodirov: Toshkent «O'qituvchi» 2018 yil
2. «Informatika va Hisoblash texnikasi asoslari» B.Boltaev, M. Maxkamov, A.Azamatov: Toshkent «O'qituvchi» 2019 yil
3. Alimov, MM Informatika va axborot texnologiyalari faniga integratsiyalashgan mediata'limni tashkil etish. Uchenyy XXI veka. Moskva mejdunarodnyy nauchnyy jurnal ISSN , 2410-3586.
4. Alimov, M. M. (2023). Mediata'lim sohasida interaktiv multimedia xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish. Educational research in universal sciences, 2(12 special), 160-166.
5. Mengliboyevich, A. M., & Abdug'aniyevich, A. Y. (2024). Web dizayn, web saytlar interaktiv ilovalar yoki mobil interfeyslar tashkil etish bosqichlari. Лучшие интеллектуальные исследования, 20(2), 136-141.
6. Alimov, M. M. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishda fan to'garaklarining ahamiyati. Журнал номи международный научно-образовательный электорнный журнал «Образование и наука в XXI века, 2.



7. Mengliboyevich, A. M. (2024). Development of media literacy of students in the process of studying informatics and information technologies in our country. Web of teachers: inderscience research, 2(6), 113-118.

8. Alimov, M. M. Информатика ва ахборот технологиялари фанига интеграциялашган медиатаълимни ташкил этиш. Ученый XXI века. Москва международный научный журнал issn, 2410-3586.

9. Alimov, M. Информатика ва ахборот технологиялари фанини ўқитишда медиатаълимга асосланган “Ўқитишнинг беш поғонали метод”идан фойдаланиш орқали ўқувчилар фаоллигини ошириш Elektron ta’lim”–“Электронное обучение”–“E-learning” september, 2022.

10. Mengliboyevich, A. M. (2025). INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLGIYALARI FANIDAN DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA O'QUV VA IJTIMOIIY KONTENTLAR YARATISH METODIKASI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 61(1), 86-93.

11. Mengliboyevich, A. M., & Iroda, X. (2025). TA'LIM JARAYONIDA 3D MODELLASHTIRISH VA DIZAYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 61(1), 94-100.

12. Mengliboyevich, A. M. (2025). TA'LIM JARAYONIDA VIDEO-USULDAN FOYDALANISH USULI. DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OYALARI , 61 (1), 80-85.

10. Alimov, M. M. (2022). Kompyuter fani va axborot texnologiyalari bilan integratsiya oav ta'limni tashkilot. 21-asr olimi , (5-2(86)), 43-48.